



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o‘rgatish
ishlarini yaxshilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 28-avgust kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 28-son bayoni hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida” 2023-yil 14-avgustdagi 239-son buyrug‘i ijrosini o‘rganish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o‘rgatish holatini o‘rganish jadvali va ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o‘rgatish holatini o‘rganish savolnomasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh 1-ilovadagi jadvalga muvofiq hududlarga xizmat safariga yuborilsin.

3. Ishchi guruh (D.Ermatov)ga:

xizmat safari davomida ishchi guruh a’zolari faoliyatini muvofiqlashtirish;

o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o‘rgatish joriy qilingan 208 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi o‘quv jarayonini o‘rganish va ularga tegishli uslubiy yordamlar ko‘rsatish;

har bir tuman (shahar)da 2024-yil yanvar oyidan boshlab ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o‘rgatish ishlari joriy etiladigan maktablarda zarur sharoitlar mavjudligini o‘rganish;

xizmat safari natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirib, rahbariyatga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari ishchi guruhga har bir tuman (shahar)da tanlangan maktablarda o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarga o‘rgatish ishlari holatini o‘rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratsin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) ushbu buyruqning 1-ilovasidagi jadvalga muvofiq ishchi guruh a'zolarini xizmat safariga yuborilishini ta'minlasin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) vazirlik xodimlarining xizmat safari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini o'rnatilgan tartibda to'lab berish ishlarini amalga oshirsin.

7. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova), "Barkamol avlod" Respublika bolalar maktabi (Y.Akbarov) ilovaga muvofiq tegishli xodimlarning belgilangan muddatlarda xizmat safariga yuborilishini hamda ularning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarini tashkilot mablag'lari hisobidan to'lab berilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 13 - oktabr,
470 -son

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy til
va kasb-hunar o'rgatish holatini o'rganish jadvali va
ishchi guruhi tarkibi**

T/r	Ismi sharifi va lavozimi	Hududlarga safar muddati
1.	G'.Kulnazarov - Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Qoraqalpog'iston Respublikasi (16-25-oktabr)
2.	J.Mahmudov - Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi uslubchisi	
3.	S.Musayev - Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Andijon viloyati (16-25-oktabr)
4.	X.Jo'rayev - Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi bo'limi boshlig'i	
5.	M.Xomidov - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	Buxoro viloyati (16-25-oktabr)
6.	G.Yusupova - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	
7.	M.Saidova - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	Jizzax viloyati (16-21-oktabr)
8.	Sh.Yusupov - Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi uslubchisi	
9.	F.Normurodov - Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi bo'limi boshlig'i	Qashqadaryo viloyati (16-21-oktabr)
10.	S.Axmedov - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	Navoiy viloyati (16-21-oktabr)
11.	A.Rashidov - Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi uslubchisi	
12.	N.Muxammedova - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	Namangan viloyati (16-21-oktabr)
13.	Z.Xabibullayev - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi bosh metodisti	
	D.Ermatov - Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi boshlig'i	Samarqand viloyati (16-22-oktabr)

15.	R.Otaqulov - Respublika “Barkamol avlod” bolalar maktabi bo‘limi boshlig‘i	
16.	T.Xurramov - Respublika “Barkamol avlod” bolalar maktabi uslubchisi	Surxondaryo viloyati <i>(16-21-oktabr)</i>
17.	U.Abdullayev - O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	
18.	D.Muxammedjonova - O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	Sirdaryo viloyati <i>(16-21-oktabr)</i>
19.	Sh.To‘laganov - Respublika “Barkamol avlod” bolalar maktabi uslubchisi	
20.	O.Raxmanov - Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Toshkent viloyati <i>(16-25-oktabr)</i>
21.	M.Sodiqova - O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	
22.	D.Murodov - Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish boshqarmasi bosh mutaxassisi	Farg‘ona viloyati <i>(16-25-oktabr)</i>
23.	Sh.Tojiboev - Respublika “Barkamol avlod” bolalar maktabi uslubchisi	
24.	J.Djumaniyazova - Respublika “Barkamol avlod” bolalar maktabi bo‘limi boshlig‘i	Xorazm viloyati <i>(16-21-oktabr)</i>
25.	A.Israilova - O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	
26.	G.Jo‘rayeva - Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Toshkent shahar <i>(16-21-oktabr)</i>
27.	D.Kamalova - O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti	

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy til
va kasb-hunar o'rgatish holatini o'rganish
SAVOLNOMASI**

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 14-avgustdagi 238-son, 239-son va 2023-yil 31-avgustdagi 283-son buyruqlari ijro holati.
2. Tanlangan maktablarda ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o'rgatish bo'yicha o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilganligi.
3. Tanlangan maktablarda kasb-hunar o'rgatish uchun tadbirkorlar va soha mutaxassislari jalb etilganligi.
4. Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan tanlangan maktablarga kasb-hunar bo'yicha o'quv dasturlar va taqvim-mavzu rejalarining yetkazib berilganligi.
5. Kasb-hunar o'rgatish xonalarining vazirlik tomonidan tasdiqlangan talablar asosida jihozlanish holati.
6. "Kasbiy ta'lim" fani amaliy mashg'ulotlari uchun mahalliy hokimlik tomonidan xom-ashyolar uchun mablag'lar ajratilganligi.
7. Ikkinchi xorijiy tildan dars berayotgan o'qituvchilarning til sertifikatiga ega ekanligi.
8. O'quvchilarning kasbiy moyilligini aniqlash bo'yicha psixologik-pedagogik diagnostika (so'rovnoma) o'tkazilganligi va ularning natijalari asosida kasbga yo'naltirish ishlari olib borilganligi.
9. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish hamda maktabni tamomlagandan so'ng ularning bandligini ta'minlash yuzasidan hokim, ota-ona va maktab direktori o'rtasida tuziladigan uch tomonlama shartnomani imzolash borasida olib borilayotgan ishlar ahvoli.
10. Har bir tuman (shahar)da 2024-yil yanvar oyidan boshlab ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o'rgatish ishlari joriy etiladigan maktablarda ikkinchi xorijiy til va tanlangan kasb-hunar bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi.
11. Har bir tuman (shahar)da 2024-yil yanvar oyidan boshlab ikkinchi xorijiy til va kasb-hunar o'rgatish ishlari joriy etiladigan maktablarda tanlangan kasb-hunar o'rgatish uchun zarur sharoitlar (alohida xona, jihoz va asbob-uskunalar) mavjudligi.
12. "Kasbiy ta'lim" fani mashg'ulotlarining darslar jadvaliga kiritilganlik holati.